

YURIDIK FAOLIYATDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI HUQUQIY HUJJATLAR TAHLILI

Hafizov Diyorbek

hafizovdiyorbek5@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti,

Jinoiy odil sudlov fakulteti 1-kurs V-potok 1-guruh talabasi.

Javoxir Eshonqulov

Ilmiy rahbar,

Toshkent davlat yuridik universiteti, Kiber huquq kafedrası o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14231948>

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot yuridik faoliyat va sohadagi huquqiy hujjatlar tahlilida sun'iy intellektning ahamiyati, foydalanish tartibi hamda ularning yuridik faoliyatdagi tarixini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada hujjatlarni avtomatlashtirishning asosiy yo'nalishlari, hujjatlarni tezkor tahlil qilishda sun'iy intellektidan foydalanishning yuristlarga foydasi, Jahon va O'zbekistonda sohada foydalanilayotgan sun'iy intellektlarning samaradorlikka ta'siri kompleks tahlil qilinadi. Maqola doirasida hujjatlar tahlilida, umuman yuridik faoliyatda xalqaro va milliy qonunchilikdagi yangilik va o'zgarishlar hamda ularning tahlili haqida muhokama boradi.

Natijalar huquqiy hujjatlar tahrirlovchi va tezkor tahlil qiluvchi sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish yuristlar ish samaradorligini sezilarli darajada oshirishini, xizmat sifatini yaxshilashini va xarajatlarni kamaytirishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, moliyaviy to'siqlar va texnik bilimlar yetishmasligi bilan bog'liq muammolar yuridik faoliyatda zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etishga to'sqinlik qilayotgani ko'rinadi. Maqola yakunida sun'iy intellekt vositalarini yuridik faoliyatga samarali joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Legal tech, O'zbekiston, yuridik innovatsiyalar, sun'iy intellekt, huquqiy hujjatlar, huquqiy xizmatlar, yuristlar, raqamlashtirish, yuridik faoliyat, qonunchilik.

ANALYSIS OF LEGAL DOCUMENTS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN LEGAL ACTIVITY

Abstract. This study is devoted to the study of the importance of artificial intelligence in legal activities and the analysis of legal documents in the field, the procedure for its use and their history in legal activities. The article provides a comprehensive analysis of the main directions of document automation, the benefits of using artificial intelligence for rapid analysis of documents, and the impact of artificial intelligence used in the field in the world and Uzbekistan on efficiency.

Within the framework of the article, there will be a discussion about innovations and changes in international and national legislation and their analysis in the analysis of documents, in general legal activity. The results show that the use of artificial intelligence tools for editing and rapid analysis of legal documents significantly increases the work efficiency of lawyers, improves the quality of service and reduces costs. At the same time, problems related to financial barriers and lack of technical knowledge seem to be preventing the widespread introduction of modern technologies in legal activities. At the end of the article, recommendations on the effective introduction of artificial intelligence tools into legal activities have been developed.

Keywords: Legal tech, Uzbekistan, legal innovations, artificial intelligence, legal documents, legal services, lawyers, digitalization, legal activity, legislation.

АНАЛИЗ ПРАВОВЫХ ДОКУМЕНТОВ НА ОСНОВЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПРАВОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. Данное исследование посвящено изучению значения искусственного интеллекта при анализе правовых документов в сфере юридической деятельности, порядка его использования и истории их использования в юридической деятельности. В статье представлен комплексный анализ основных направлений автоматизации документооборота, преимуществ использования искусственного интеллекта для оперативного анализа документов, а также влияние искусственного интеллекта, используемого в сфере в мире и Узбекистане, на эффективность. В рамках статьи пойдет речь о нововведениях и изменениях в международном и национальном законодательстве и их анализе при анализе документов, в общеправовой деятельности. Результаты показывают, что использование инструментов искусственного интеллекта для редактирования и быстрого анализа юридических документов существенно повышает эффективность работы юристов, улучшает качество обслуживания и снижает затраты. В то же время проблемы, связанные с финансовыми барьерами и отсутствием технических знаний, похоже, препятствуют широкому внедрению современных технологий в юридическую деятельность. В конце статьи разработаны рекомендации по эффективному внедрению инструментов искусственного интеллекта в юридическую деятельность.

Ключевые слова: Юридические технологии, Узбекистан, правовые инновации, искусственный интеллект, юридические документы, юридические услуги, юристы, цифровизация, юридическая деятельность, законодательство.

KIRISH

Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi barcha sohalarga, shu jumladan yuridik faoliyatdagi hujjatalarni tezkor tahrir va tahlil qilish sohasiga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Maqolamizga kirishdan oldin dastavval sun'iy intellektning nima ekanligi va uning huquqiy hujjatlar tahlilidagi ahamiyati qisqa bayon qilamiz. Umuman olganda sun'iy intellektning paydo bo'lishi 1950-yillardagi ingliz olimi Alan Turing g'oyalariga borib taqaladi. U "Computing Machinery and Intelligence" maqolasida mashinalarning tushunish qobiliyatini sinovdan o'tkazishni qayd etgan. Turing o'ylab topgan va uning nomi bilan aytiladigan "Turing testi" mashinaning insondek intellektual vazifalarni qilish uchun foydalaniladi. Ayni o'sha davrdan sun'iy intellekt tadqiqotlari algoritmlar, neyron tarmoqlar va mashina o'qitish usullari bilan takomillashib bordi. Hozirda esa sun'iy intellekt texnologiyalari yuridik faoliyatda ham katta imkoniyatlarni olib kelmoqda. Yuridik amaliyotda ko'plab murakkab hujjatlar, shartnomalar va sud ishlarini tahlil qilish ehtiyoji doimiy ravishda mavjud bo'lgan. Ko'p hollarda hujjatlar juda katta hajmda bo'lib, ulardan asosiy ma'lumotlarni ajratib olish vaqt talab qilardi. Bunday sharoitda huquqiy mutaxassislar, yuristlar va advokatlarga sun'iy intellekt vositalarining yordami katta foyda keltiradi (Goodman, 2020).

Legal Tech yuridik faoliyatda axborot texnologiyalari va dasturiy ta'minotdan foydalanishni o'z ichiga oladi (Susskind, 2019). Bu soha huquqiy hujjatlarni avtomatlashtirish, ma'lumotlarni tahlil qilish, sun'iy intellekt yordamida huquqiy maslahatlar berish kabi

yoʻnalishlarda taraqqiy topmoqda. Yuristlar uchun Legal Tech va sunʻiy intellekt vositalaridan huquqiy hujjatlarni tahlil qilishda foydalanish nafaqat ish samaradorligini oshiradi, balki mijozlarga sifatli xizmat koʻrsatish imkoniyatlarini ham yaxshilaydi. (Goodenough et al., 2021).

Maqolaning dolzarbligi shundaki, globallashuv va texnologik taraqqiyot davrida yuridik faoliyatda Legal Tech va sunʻiy intellekt vositalarini qoʻllash zaruratga aylanmoqda.

Bu esa oʻz navbatida yuristlarning huquqiy hujjatlar bilan ishlash jarayoniga yangi imkoniyatlar va qiyinchiliklarni qoʻymoqda. Shu sababli sunʻiy intellektning yuridik sohasiga qanday foyda keltirishi va uni samarali tatbiq etish yoʻllari haqida chuqur ilmiy tadqiqotlar oʻtkazish muhim ahamiyatga ega.

Maqolaning maqsadi sunʻiy intellekt vositalarining yuristlar faoliyatiga taʼsirini oʻrganish va ularning samaradorligini oshirishdagi rolini aniqlashdan iborat. Qoʻyilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- Huquqiy hujjatlarni tahlil qiluvchi sunʻiy intellektlarni koʻrib chiqish;
- Yuridik faoliyatda sunʻiy intellekt vositalarini qoʻllashning afzalliklarini aniqlash;
- Legal Tech va sunʻiy intellekt vositalarini yuristlar amaliyotiga samarali joriy etish boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqish;

USULLAR

- 1- Xalqaro va milliy huquqiy hujjatlarni tahlil qiluvchi sunʻiy intellektlarning namunalari
- 2- Xalqaro hamda milliy qonunchilik tahlili
- 3- Sunʻiy intellektning yuridik tahlilda qoʻllanishi

Dastavval ushbu maqola sunʻiy intellektning yuristlar faoliyatiga samarasini kompleks oʻrganish maqsadida miqdoriy va sifatiy usullarni qoʻllagan holda olib yozildi. Yuqorida foydalanilgan usullar keltirilgan.

Maqola davomida hujjatlarni tahlil qilish uchun foydalaniladigan sunʻiy intellekt texnologiyalari, jumladan mashina oʻrganish, chuqur oʻrganish va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) modellarining ishlash jarayonlari oʻrganildi (Surden, 2019). Bu texnologiyalar hujjatlarni avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlash va asosiy maʼlumotlarni keraksizlaridan ajratib olish uchun qoʻllaniladi. Sunʻiy intellekt yordamida huquqiy hujjatlarni tahrir va tahlil qilish, shuningdek, ushbu masalalarga doir huquq normalarini tezroq topish muammosini hal qiladi.

Bunday narsaga misol qilib, har qanday yuristning oʻz mijozining talabidan istalgan hujjatlarni shakllantirishda aniq va tezkorlik imkonini beradi. Yana bir narsaga eʼtibor qaratish lozimki, sunʻiy intellekt asosidagi bunday tizimlardan foydalanish nafaqat yuristlarga, balki, barcha shaxslar foydalanishi mumkin boʻlishi uchun imkoniyatlar mavjud. Shu bilan birga, sunʻiy intellekt texnologiyalari orqali qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar shaffofligi, qonunchilikka muvofiqligi va boshqa jihatlarini ham tahlil qilish mumkin (Calo, 2017). Bu sohani mamlakatimizda rivojlantirish uchun xorij tajribasini oʻrganish va hamkorlikni amalga oshirish muhim rol oʻynaydi. Mazkur maqolada rivojlangan davlatlarda amalda mavjud huquqiy hujjatlarni tahlil qiluvchi sunʻiy intellektlar va ular bilan bogʻliq maʼlumotlar beriladi.

NATIJALAR

Sunʻiy intellekt yaratilgandan boshlab hozirgacha bu tizim koʻplab samarali natijalar berdi. Maqolamizni quyida ayni kunlarda foydalaniladigan eng mashhur huquqiy hujjatlarni tahlil qiluvchi chet el va milliy sunʻiy intellektlar haqida gapiramiz.

-Germaniya

1 Smartlaw (www.smartlaw.de) Bu platforma yuridik hujjatlarni avtomatik tarzda yaratish imkonini beradi. Asosan kichik va o'rta biznes egalari uchun mo'ljallangan.

2 Legal OS (www.legal-os.de) Yuridik jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqarish uchun dasturiy ta'minot. Bepul demo versiyasi mavjud.

3 Leverton (www.leverton.ai) Sun'iy intellekt yordamida shartnomalarni tahlil qilish va ma'lumotlarni ajratib olish imkonini beruvchi platforma.

4 Lexalyze (www.lexalyze.de) Huquqiy hujjatlarni tahlil qilish va xatolarni aniqlash uchun AI texnologiyasidan foydalanadi.

5 Contractbook (www.contractbook.com) Shartnomalarni boshqarish va saqlash uchun bulutli platforma. Bepul sinov muddati taklif etiladi.

6 Janolaw (www.janolaw.de) Turli yuridik hujjatlar va shartnomalar uchun onlayn konstruktor. Ba'zi xizmatlar bepul.

7 Jurato (www.jurato.de) Yuristlar va mijozlar o'rtasidagi muloqotni yengillashtiruvchi platforma.

-Rossiya

1 Synto AI – Bu platforma yuridik hujjatlar va muammolarni to'g'ri tahlil qilish imkonini beradi va Rossiyada huquqiy hujjatlar va jarayonlarni avtomatlashtirish uchun foydalaniladi (www.syntollc.com).

2 Case Reader – Hujjatlardagi faktlar, huquqiy muammolar va normalarni tahlil qilib, ularni tartibga soluvchi platforma. Bu sun'iy intellekt huquqiy muammolarni tuzilgan hujjatlar orqali chuqur o'rganishga imkon beradi (www.cdn.yeschat.ai).

3 AI Lawyer – Shartnomalarni tahlil qilish va qonuniy masalalarni baholash imkoniyatini beradi. Rossiyadagi advokatlar va jamoaviy yuridik bo'limlar tomonidan huquqiy yechimlar berish va hujjatlarni tez hamda aniq tahlil qilish uchun foydalaniladi (www.aillawyer.pro).

3 Lex Machina – Sud amaliyoti va yuridik yozuvlarni tahrir qilish uchun ishlatiladigan platforma bo'lib, Rossiyadagi yuristlar uchun sud strategiyalarini ishlab chiqishda qo'llaniladi (www.lexmachina.com).

4 Everlaw – sun'iy intellekt asosida ishlaydigan platforma bo'lib, hujjatlarni to'plamda tahlil qilish va hujjatlarni tezkor ko'rib chiqishda yordam beradi. Bu, ayniqsa, huquqiy dalillarni baholashda foydali hisoblanadi. (www.everlaw.com).

5 Casetext – Bu platforma Rossiyada huquqiy tadqiqotlar uchun ishlatiladi, unda qonuniy matnlar va sud ishlariga oid keng ma'lumotlar to'plami mavjud (www.casetext.com).

7 Law Geex – huquqiy shartnoma va hujjatlarni avtomatik ravishda baholaydi va huquqiy xavflarni belgilaydi. Ko'pincha jamoaviy huquqiy hujjatlarni tahlil qilishda ishlatiladi (www.lawgeex.com).

8 Legalysis – Xalqaro hujjatlarni Rossiya qonunchiligiga muvofiq tarzda aniqlov imkoniyatiga ega bo'lgan sun'iy intellekt. Bu vosita yuridik jarayonlarni avtomatlashtirish uchun keng ishlatiladi. (www.dotheai.com/legalysis).

9 Kira Systems – Kira AI shartnomalarni va huquqiy hujjatlarni tahlil qilish uchun ishlatiladi va kerakli ma'lumotlarni tezda ajratib olishga imkon beradi (www.kirasystems.com).

10 Amto.ai – Bu sun'iy intellekt tizimi hujjatlarni turlarga ajratish, huquqiy matnlarni tahlil qilish va mamlakatda huquqiy tadqiqotlar uchun foydalaniladi. (www.amto.ai).

-Koreya Respublikasi

1 SuperLawyer(www.superlawyer) -Law&Company tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, xulosalar berish, dastlabki loyihalar yozish va tegishli sud amaliyotini qidirish imkoniyatini beradi.

2 Intelliconning U-Lex(www.intellecion) U-Lex huquqiy hujjatlar tahlili uchun sun'iy intellekt bo'lib, atamalar va qoida-qonunlarni o'zi aniqlaydi va tegishli hujjatlarni tahlilida yordam beradi

3 Help Me(www.help.me) -shartnomalar va boshqa huquqiy hujjatlarni yaratishda avtomatlashgan xizmat, nafaqat yuristlar uchun balki fuqarolar uchun ham qulay.

4 Law & Company AI Solutions(www.law&company) -yirik tashkilotlar va davlat organlari uchun maxsus sun'iy intellekt xizmatlarini huquqiy hujjatlar tahlilida taqdim etadi.

5 DeepSearch(www.deepsearch) -asosiy yuridik hujjatlarni tahlil qilish uchun yuridik korxona va kompaniyalar tomonidan keng qo'llaniladi.

6 Clairlaw(www.clairlaw) -jinoyat va ma'muriy ishlarida huquqiy hujjatlar tahlili uchun ishlatiladi.

7 Aegis Network's Legal AI(www.aegisnetwork) -murakkab shartnomalarni tahlil qilish va sud hukmlarini ham tahlil qilishda yordam beradi.

8 Uppsala Security for Law Firms(www.upsalasecurity) -kiberhuquqiy masalalarda va blokcheyn bo'yicha dalillarni o'rganishda yordam beradi.

9 Lexify(www.lexify) - shartnomalarni boshqarish, tekshirish va avtomatlashtirilgan hujjatlar yaratish uchun mo'ljallangan

Yuqoridagi misollarni ko'plab davom ettirish mumkin. Chet el davlatlarini sun'ioy intellektning ilg'or yangiliklarini yuridik sohaning deyarli barcha jabhalariga kiritganliklarini yuqoridagi 3 davlat misolida ko'rishimiz mumkin. Endi o'zimizning milliy sun'iy intellekt asosida ishlovchi yuridik faoliyatdagi platformalarni aytib o'tamiz.

O'zbekiston Respublikasida yuridik faoliyatda hujjatlar tahlil qiluvchi hamda soha bo'yicha tegishli axborot, ma'lumotlar va hujjat namunalari ko'rsatuvchi sun'iy intellekt asosidagi soda platformalar mavjud.

-Yurxizmat.uz(www.yurxizmat.uz) – butun yuridik faoliyat va sohadagi muomaladagi barcha hujjat namunalari ko'rsatilgan.

-Public.sud.uz (www.public.sud.uz) – sud protsessi jarayonlarida chiqarilgan qaror, ajrim va hukmlar bayon etilgan. Biz bu platforma ma'lumotlaridan istalgan qarorni olishimiz mumkin.

-AI.soliq.uz (www.ai.soliq.uz) – soliq huquqiga oid barcha savol va muammolarimizga javob bera oladigan sun'iy intellekt

-E-sud.uz (www.e-sud.uz) – bu tizim orqali bizning qonunchilikda elektron elektron to'lov tizimlari, sud majlislarining jadvallari, sud qarorlarining to'plamlari, hujjatlarning namunalari, sudga elektron murojaat qilish va rahbariyatga qabul uchun ro'yxatdan o'tish kabi funksiyalarni samarali bajarishga erishildi.

-E-notarius.uz(www.e-notarius.uz) – bu tizim orqali elektron ro'yxatdan o'tgan bitimlar natijalari statistika bo'yicha beriladi.

-Kontrakt.edu.uz(www.kontrakt.edu.uz) – smart shartnomalarni yaratib beradigan tezkor sun'iy intellektga asoslangan platforma.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ham bilishimiz mumkinki, chet davlatlardagi yuridik sohada ishlaydigan sun'iy intellekt asosidagi platformalarning har bir soha bo'yicha yaratilganligiga guvoh bo'lasiz. Ammo bizdagi sun'iy intellekt asosidagi platformalar kam sonli. Shu bilan birga tahlil qilinayotgan mavzu bo'yicha topish qiyin. Bu muammoni keng ko'lamda hal qilish uchun mamlakatimizda sun'iy intellekt sohasida olib borilayotgan ishlarni tubdan yangilash zarur. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish uchun “Raqamli O'zbekiston - 2030” qabul qilindi. Unga ko'ra, sun'iy intellekt texnologiyalari orqali ishlab chiqariladigan dasturiy mahsulot va xizmatlar qiymatini 2030-yilga borib 1,5 milliard AQSh dollariga yetkazish vazifasi qo'yildi. Davlat rahbari, shuningdek, sun'iy intellekt sohasi bo'yicha ilmiy tadqiqot laboratoriyalari tashkil etish, yuqori mahsulotlar hisoblash serverlarini yo'lga qo'yish hamda sun'iy intellekt markazlarini yaratish haqida topshiriq berdi. Strategiyada asosan bank-moliya, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi, energetika kabi sohalarga sun'iy intellektni joriy etish nazarda tutilgan. Shavkat Mirziyoyev, shuningdek, yangi texnologiyalarni rivojlantirish uchun qonunchilik bazasini yaratishva mutaxassis-kadrlarni tayyorlash zarurligini ta'kidladi.¹

Sun'iy intellektning huquqiy hujjatlarni tahlil qilishda qo'llanishi ko'plab amaliy qulayliklarni yaratib bermoqda. Misol sifatida, sun'iy intellekt tizimlari katta hajmdagi huquqiy hujjatlarni tahrir va tahlil qilish, shartnoma shartlarini tekshirish va sud jarayonlaridagi hujjatlarni qayta ko'rib chiqishda sezilarli vaqt sarfini oldini olish imkonini bermoqda.

Masalan, Kira Systems va Luminance kabi tizimlar bugunga kunda huquqshunoslarga hujjatchilik ishida muhim shartlar va xavf omillarini tezda ochib berish imkonini yaratadi (Hogan et al., 2020). Yuqorida sanalgan tizimlar yordamida huquqiy hujjatlarga bog'liq ishlarni tezroq va aniqroq bajarish imkoniyati sezilarli darajada ortdi. Ammo, sun'iy intellekt yangiliklarini yuridik tizimlarda qo'llashda bir qator qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Huquqshunos mutaxassislar tomonidan sun'iy intellektning qaror qabul qilishdagi ishonchliligi va aniqligiga aloqador muammolar ko'tarilmoqda. Yana bir narsa borki, jinoyat huquqi kabi nozik huquqiy jarayonlarda sun'iy intellekt tizimlari yordamida qabul qilingan qarorlar insoniy faktlarni hisobga olmaydi degan fikrlar mavjud (Calo, 2017). Shu sababli, hujjatlar tahlili davomida sun'iy intellekt beradigan ma'lumotni aniqligiga ishonch hosil qilish zarur.

MUHOKAMA

Biz muhokama qismida sun'iy intellekt sohasida milliy qonunchiligimizda qabul qilingan hujjatlar va o'zgarishlarni tahlil qilamiz. O'zbekistonda yuridik faoliyatda sun'iy intellekt asosidagi huquqiy hujjatlar tahlil qiluvchi platformalarning muhim ta'siri bor ekanligini qabul qilingan turli xil qonun va normativ-huquqiy hujjatlardan bilishimiz mumkin.

Misol sifatida, “Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash” to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.10.2024-yilgi 358-sonli qaroridan (<https://lex.uz/uz/docs/-7158604>) sun'iy intellektga bo'lgan e'tiborning

¹<https://kun.uz/>

ortishini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining Axborot xavfsizligi to'g'risidagi qonuni esa, sun'iy intellekt tizimlarining xavfsizligini ta'minlash uchun muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Sun'iy intellektga asoslangan huquqiy hujjatlar tahlili jarayonida fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Tahlil qilinayotgan mavzu doirasida milliy nafaqat, balki, xalqaro qonun manbalari ham muhim ahamiyatga ega. Bir qancha yirik xalqaro qonunchilik namunalari sun'iy intellekt tizimlarini huquqiy sohada ishlatish tartibga solinmoqda. Quyida ularning ayrimlarini ko'ramiz.

1 Yevropa ittifoqining Umumiy Ma'lumotlarni Himoya Qilish qoidasi (GDPR)

Bu hujjat avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish jarayonida inson nazorati bo'lishini ta'kidlaydi. Bu qoida muhokamadagi mavzuyimiz uchun ayni kerakli norma.

2 Yevropa ittifoqining Artificial Intelligence Act (AI ACT) qonun loyihasi

Bu loyihaning ahamiyatli tomoni shundaki huquqiy hujjatlar tahlili tizimlari yuqori darajali xavf ostida bo'ladi hamda bu tizimlar faoliyati davomida chuqur nazorat va sinovdan o'tkazilishi talab qilinadi. Yuqorida yozilgan milliy va hamda xalqaro qonunchilik namunalari kelib chiqib mavzu yuzasidan qonunchilikka taklif beradigan bo'lsam, 2024-yil 14-oktabr sanasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi - 2030" strategiyasi asosan bank-moliya, soliq, bojxona, energetika kabi sohalarga katta e'tibor qaratgan. Bu sohalar hozirgi davrda o'ta dolzarbligi uchun ular strategiyada qayd etilgan. Shu bilan birga fikrimcha, aholining yukini yengil qilish va yuridik faoliyatda ishlar samaradorligini oshirish maqsadida yuqoridagi sohalar qatorida huquq sohasida sun'iy intellekt rivojini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lgan bo'lardi. Chunki, dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kirish uchun hayotning barcha sohalariga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish raqobatbardoshlikni ta'minlaydi. Sun'iy intellektning yuridik sohada qo'llanilishi natijalarini baholashda, texnologiyaning samaradorligi va huquqiy voqeliklarga ta'siri albatta juda yuqori. Bir tomondan, sun'iy intellekt texnologiyalari yuridik hujjatlarni tahlil qilishda samaradorlikni oshiradi, xatoliklarni kamaytiradi va ish jarayonlarini tezlashtiradi. Bu texnologiyalar yuristlariga yanada samarali va aniq qarorlar qabul qilishga yordam beradi (Bommarito & Katz, 2017). Sun'iy intellekt tizimlarini huquqiy hujjatlarni tahrir va tahlil jarayoniga joriy etishda uning foydalarini samarali ravishda ko'paytirish va kamchiliklarini kamaytirish uchun muvozanatli yondashuv zarur. Sun'iy intellekt qarorlarini inson tomonidan nazorat qilish va ularni faqat yordamchi vosita sifatida ishlatish lozim. Shu bilan birga, sun'iy intellekt orqali qabul qilingan har qanday qarorlar uchun insonlar javobgarlikni bo'yniga olishi va mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi kerak (Wachter et al., 2017).

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt asosidagi platformalarning huquqiy hujjatlar tahlilida qo'llanilishi yuristlariga xizmatlar sifatini oshirishga va ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishda katta ahamiyatga ega. Xuddi shu kabi tahlil qiluvchi sun'iy intellekt tizimlari kelajakda yursitlar uchun muhim yordamchi vositaga aylanib, huquqiy jarayonlarni tezlashtirish, hujjatbozlikni qisqartirish va ularni samarali tahlil qilish va mijozlarga kerakli maslahatlar berishda yetakchi o'rin egallashi mumkin. Shu bilan birga, bu texnik yangiliklarning yuridik faoliyatda keng qo'llanilishi huquqiy tartibotning yana ham raqamli va avtomatlashtirilgan bo'lishiga olib kelishi ehtimoli yuqori.

Biroq, sun'iy intellekt texnologiyalarining keng tarqalishi axloqiy va huquqiy xavf va xavotirlarni keltirib chiqarmoqda. Sun'iy intellekt yordamida qabul qilingan qarorlarning shaffofligi va mas'uliyati masalalari hamda algoritmik xatolar tufayli insonlar taqdiriga zarar yetkazilishi mumkin. Shuning uchun, huquqiy amaliyot va faoliyatda sun'iy intellektdan foydalanishda ehtiyotkor yondashuv zarur.

Kelajakda sun'iy intellekt texnologiyalari yuridik sohada yanada rivojlanib, hujjatlarni tahlil qilish jarayonini yanada samarali qilish uchun yangi imkoniyatlar yaratishi mumkin.

Ammo, bu texnologiyalarning insonlar tomonidan to'g'ri nazorat qilinishi va adolatli huquqiy tizimning ta'minlanishi muhim ahamiyatga ega bo'lib qoladi. Axloqiy me'yorlarga rioya qilish va sun'iy intellekt qarorlarining to'g'riligini ta'minlash ham muhimdir (Surden, 2019).

Yana bir muhim jihati, sun'iy intellektni turli sohalarga ommaviy ravishda qo'llanishi ishning samaradorligini oshirish bilan birga kelajakda ish o'rinlarini kamayishiga ham olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, sun'iy intellektning ommalashuvi va rivoji jamiyatda har xil korrupsion holatlarning oldini olishga ham xizmat qiladi. Sun'iy intellektning eng qulay taraflaridan biri har soha vakillari uchun ish jarayonini tezlashtirishga yordam beradi. Bu orqali ham ish sifatli ham tez amalga oshiriladi. Yuridik faoliyatda huquqiy hujjatlarni tahlil qiluvchi texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos afzalliklari bor bo'lib, bu zamonaviy yuridik amaliyotning ajralmas bo'lagiga aylanib bormoqda. Bu texnologiyalar yuridik faoliyatni sezilarli darajada samaraliroq bo'lishiga xizmat qilib, xarajatlarni kamaytirishda, mijozlarga xizmat ko'rsatishni yanada yaxshilashda o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Ularning o'ziga yarasha xavfsizlik, internet bilan aloqa kabi muammolarni hal qilish uchun chora ko'rish muhim ahamiyatga ega.

Kelajakda hujjat tahlil qiluvchi sun'iy texnologiyalar yuridik faoliyatda keng miqyosda qo'llanishi kutilmoqda. Bu jarayon ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda sodir bo'lish ehtimoli yuqori. Ularning rivojlanishi bilan afzalliklari ortib, kamchiliklari kamayish ehtimoli bor. Shuning uchun undan barcha sohalarda keng foydalanish samaraliroq usuldir. Umuman olganda, bu jarayonlarning barchasi vaqt talab etadi. Lekin uning keyingi samarasi ketadigan vaqtdanda muhim hisoblanadi.

REFERENCES

1. www.lex.uz
2. kun.uz sayti maqolasi (14.08.2024)
3. Bommarito, M. J., & Katz, D. M. (2017). A General Approach for Predicting the Behavior of the Supreme Court of the United States. PLOS ONE, 12(4), e0174698.
4. Calo, R. (2017). Artificial Intelligence Policy: A Primer and Roadmap. University of California Law Review, 51(5), 399–435.
5. Hogan, J., Katz, D. M., & Bommarito, M. J. (2020). The Law of Artificial Intelligence and Smart Machines: Understanding AI's Role in the Legal Landscape. Cambridge University Press.
6. Surden, H. (2019). Artificial Intelligence and Law: An Overview. Georgia Law Review, 53(5), 81–122.
7. Wachter, S., Mittelstadt, B., & Floridi, L. (2017). Why a Right to Explanation of Automated Decision-Making Does Not Exist in the General Data Protection Regulation. International Data Privacy Law, 7(2), 76–99.
8. Wang, Y. (2019). Legal Analytics: The Future of Legal Analysis in AI Era.